

ALISHER NAVOIY - CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK ASOSCHISI

To‘lqin ALLAYOROV,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti dotsenti, f.f.f.d., PhD,*

Gulbonu SHUKUROVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878276>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk turkiy adabiyotning yirik namoyondasi hisoblangan Alisher Navoiyning lingvistika sohasiga qo‘shgan hissalar va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari asosidagi chog‘ishtirma tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga to‘xtaladi. Asarda keltirilgan tilshunoslikka oid termin va izohlar, ularning chog‘ishtirma tilshunoslikdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: «Devonu lug‘otit turk» asari, fuzalolar, qiyosan o‘rganish, ona tili, tilimiz imkoniyatlari

*Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo‘lib
chiqsa — tilning ofatidir.
Alisher Navoiy*

Til — insonning milliy va ma’naviy boyligi hisoblanadi. Til — ona allasi orqali kirib, insonning ruhiyatiga milliylikni singdiradi. Til — millatning ko‘zgusi bo‘lib, unda tarix - o‘tmish va kelajak jonlanadi. «Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir» deya e’tirof etadi Abdulla Avloniy.

O‘zbek tili taraqqiyoti bugungi kunga qadar juda katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan. Tilimizning ilk namunalarini O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchraydi. Ulardagi yozuvlarda aks etgan tilimiz qadimgi turkiy til hisoblanadi. XI-XII asrlarda mamlakatimiz hududida eski turkiy til shakllanadi. Bu davrda yaratilgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari eski turkiy tilda yozilgan betakror va nodir asarlardan hisoblanadi. «Devonu lug‘otit turk» asari nafaqat badiiy, balki ilmiy, ijtimoiy ahamiyatga ega asardir. Xuddi shu davrda Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig‘», Xo‘ja Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”, Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlari yuzaga keladiki, bu asarlar eski turkiy tilda yozilgan adabiyotning yuksak namunalaridir.

XIV-XV asrlar eski o‘zbek adabiy tili rivojlanishi Lutfiyning benazir satrlari, Sakkakiyning go‘zal g‘azallari bilan bog‘liq. O‘sha davrda fors-tojik tilining boyligi va maftunkorligini madh etgan barcha shoir-u fuzalolar Alisher Navoiy turkiy g‘azallari oldida bosh egdi. Alisher Navoiy tilimizning go‘zal, juda boy til ekanini isbotlabgina qolmasdan, uning barcha tillardan yuksakligini ham e’tirof etganlar. Bu

haqida Abdurauf Fitrat shunday e'tirof etadi: “Navoiy...turkiy tilining adabiy hamda boy til ekanini bildirmak uchun o'zining «Muhokamat-ul lug'atayn» degan asarini yozib chiqardi.”

Chunki toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdum maqol...
Turk nazmida chu men tortib qalam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam...

Ushbu bayt va yuqoridagi adib fikrlaridan ko'rinadiki, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida tilshunoslikning yuksak namunalari berilgan va turkiy til imkoniyatlari to'la ochib berilgan. Buyuk shoirimiz yarim asrlik lug'atchilik va til grammatikasini umumlashtiruvchi ushbu asarni yozdi. Asarda Navoiy eski o'zbek tili bilan fors-tojik tilini bir-biriga chog'ishtirdi va bir-biriga qarindosh bo'lmagan tillarni qiyosiy o'rganish metodini ham boshlab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bilamizki, tilshunoslarning tillarni qiyoslashdagi va tillarni o'rganish jarayonidagi eng asosiy quroli chog'ishtirishdir. Undan tashqari, asarda tillarning kelib chiqish tarixi, til va nutq, til va tafakkur masalalariga ham to'xtalib o'tadi. Alisher Navoiy turkiy va forsiy tilni qiyosan o'rganish bilan birgalikda, umumiy tilshunoslik tavsifiga ham to'xtalib o'tadi.

Dunyo tilshunosligida chog'ishtirma tilshunoslik garchi XIX asrda foydalana boshlangan bo'lsa-da, ushbu qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslikdan Osiyo xalqlari orasida birinchi bo'lib Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'at-ut turk” asarida foydalangan hisoblanadi. Alisher Navoiy esa dunyo miqyosida birinchi bo'lib “Muhokamat-ul lug'atayn” asari bilan 1499-yilda qarindosh bo'lmagan tillarni muqoyasa qiladi. Ushbu asarning maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Ya'ni tilshunoslik taraqqiyotida yangi bir yo'nalish chog'ishtirma (konstrativ) tilshunoslik paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi. Navoiy turk va fors tillarini o'zaro qiyoslar ekan turkiy tilda mavjud ba'zi atamalarning fors tilida muqobili yo'q ekanligini ko'rsatib bergan va turkiy til imkoniyatlarining boshqa tillardan qolishmasligini ifodalagan. Masalan, Navoiy turkiy til imkoniyatlarini ochiqdashda shunday namunalarni ham keltirib o'tadi, yirikroq so'zlar to'g'risida aytaylik: arab sarfi atamasining boblarida bir bob borki, uni «mufoala bobi» deb ataydi. Bunda bir so'z aytilsa ham, ikki kishining ish-harakatini o'z ichiga oladi, o'zi bir xilda keladi, masalan «muoraza» (arz qilishmoq), «muqobala» (qarshilashmoq), «mushoara» (she'r aytishmoq), «mukolama» (so'z aytishmoq), bu keng bob hisoblanadi va bunda ko'p foydalar bor. Forscha yozuvchilar shuncha ustalik va mohirlikni da'vo qilsa ham bu foydadan mahrum ekanliklarini aytib o'tadi. Ammo

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

turkiy tilning soʻz ustalari bu foydaga qoʻl uzatib, soʻzga bir «shin» («sh») harfi qoʻshish bilan oʻsha maqsadni topganlar.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlab oʻtish joizki, Alisher Navoiy oʻz ona tilining tom maʼnodagi himoyachisi deb atashimiz joiz boʻladi. Asar qiymatini oshirgan yana bir xususiyat ularda til sathlari imkoniyatlarining toʻlaligicha ochib berilganligida desak xato boʻlmaydi Alisher Navoiyning tilimiz imkoniyatlaridan foydalanish borasidagi qarashlari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Alisher Navoiyning tilshunoslik haqidagi gʻoyalari qancha ifodalansa-da, kamlik qiladi. Chunki shoirning bu asari oʻzbek va fors-tojik tillarini, ularning lugʻat tarkibini qiyoslashga bagʻishlangan ilk filologik asar sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoʻchqortoyev I, Isabekov B. “Turkiy filologiyaga kirish”. Toshkent: 1984.
2. Tursunov U va boshqalar. “Oʻzbek adabiy tili tarixi”. Toshkent: 1995.
3. “Navoiy asarlari lugʻati”. 1972-yil
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati toʻrt tomlik. IV tom. Toshkent: 1985-yil 72-bet
5. Navoiy A. Tanlangan asarlar. III tom. “Muhokamat ul-lugʻatayn”.
6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-maʼrifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
10. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
11. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
12. OʻRAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik anʼanasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.